



## SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MILLIY STANDARTDAN XALQARO STANDARTGA TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONI

**Uzakov Utkir Abdusattarovich**

Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv

va Texnologiyalar Universiteti

ORCID: 0009-0005-6637-3234

[u.zakov@tift.uz](mailto:u.zakov@tift.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini milliy standartdan xalqaro standartga transformatsiya qilish jarayoni haqida bo'lib. Unda milliy standartda tuzilgan hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish boshqichlari, qiyinchiliklari, afzalliklari va dolzarb masalalari, shuningdek amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** savdo korxonalarida buxgalteriya hisobi, milliy buxgalteriya hisobi standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), transformatsiya jarayoni, investorlar, dasturiy ta'minot va texnologiyalar.

## ПРОЦЕСС ТРАНСФОРМАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА НА ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ С НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ

**Узаков Уткир Абдусаттарович**

Ташкентский международный университет

финансового менеджмента и технологий

**Аннотация.** Данная статья посвящена процессу трансформации бухгалтерского учета в торговых предприятиях с национальных стандартов на международные стандарты. В ней изложены этапы, трудности, преимущества и актуальные вопросы трансформации отчетов, составленных по национальным стандартам, в международные стандарты, а также необходимые действия, которые следует осуществить.

**Ключевые слова:** бухгалтерский учет в торговых предприятиях, национальные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), процесс трансформации, инвесторы, программное обеспечение и технологии.

## THE PROCESS OF TRANSFORMING ACCOUNTING IN TRADE ENTERPRISES FROM NATIONAL STANDARDS TO INTERNATIONAL STANDARDS

**Uzakov Utkir Abdusattarovich**

Tashkent International University of

Financial Management and Technologies

**Abstract.** This article discusses the process of transforming accounting in trade enterprises from national standards to international standards. It outlines the stages, challenges, advantages, and current issues in transforming reports prepared under national standards into international standards, as well as the necessary tasks that need to be carried out.

**Keywords:** accounting in trade enterprises, national accounting standards, international standards of financial reporting (IFRS), transformation process, investors, software and technologies.

### **Kirish.**

Bugungi kunda global iqtisodiyotda raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun savdo korxonalarini samarali va shaffof buxgalteriya hisobi tizimlariga ega bo'lishi zarur. Milliy standartlardan xalqaro standartlarga o'tish jarayoni, nafaqat moliyaviy hisobni takomillashtirish, balki korxonaning umumiy boshqaruv tizimini ham rivojlantirish imkonini beradi.

Tez rivojlanib borayotgan hozirgi kunda global iqtisodiy integratsiya va biznesning xalqaro miqyosda rivojlanishi sharoitida savdo korxonalarini buxgalteriya hisobini milliy standartlardan xalqaro standartlarga transformatsiya qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) butun dunyoda investorlar, auditorlar va moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga yaxlit va aniq moliyaviy ma'lumot taqdim etish uchun mo'ljallangan.

Shu bilan birga, xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish zarur sanaladi (Qaror, 2020).

### **Adabiyotlar sharhi.**

Hozirgi kunga kelib global jamiyatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, ularning qo'llanilishi va jahon miqyosida tan olinishi hamda ushbu standartlarga o'tishning dolzarbligi va ahamiyati borasida iqtisodchi olimlar va mutaxassislar, tomonidan keltirilgan fikr-mulohazalari va tadqiqot natijalariga to'xtalib o'tsak.

G20 va boshqa yirik xalqaro tashkilotlar, shuningdek, ko'plab hukumatlar, biznes birlashmalari, investorlar va butun dunyo bo'ylab buxgalterlik kasbining a'zolari yuqori sifatli global buxgalteriya standartlarining yagona to'plamini qo'llab-quvvatlaydi.<sup>25</sup>

MHXSga rioya qilish orqali moliya sohasida shaffoflik oshadi va moliyaviy hisobotlar global miqyosda solishtirish mumkin bo'ladi. Aynan shu shaffoflik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi, chunki bu orqali axborot assimetriyasi minimallashtiriladi va investorlarda ishonch paydo bo'ladi (Morshed, 2024).

Shu sababli ham bugungi globallashuv jarayonida moliya tashkilotlari, yirik korporatsiyalar va hatto mamlakatlar miqyosida MHXSlar tan olinib, hisobot tizimini yuritishda tayanib kelinmoqda. Xususan, O'zbekistonda ham bu jarayonda faol ravishda iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda (Aralov, 2023)

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolaning metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezidentimizning qaror va farmonlari, asarlari va ma'ruzalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, buxgalteriya hisobiga oid milliy va xalqaro standartlar, Nizomlar, yo'riqnomalar, xorijda va respublikamizda chop qilingan ilmiy ishlar, darsliklar va qo'llanmalar, ilmiy maqolalar, internet tarmog'i materiallari hamda izlanishlar olib borilgan korxonalarining amaliy materiallari tashkil etadi. Tahlil jarayonida analiz va sintez, kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda jadvallardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Milliy buxgalteriya hisobi standartlari, odatda, mamlakatning iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda ishlab chiqiladi. Ushbu standartlar mahalliy qonunchilik va iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Biroq, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) global miqyosda qabul qilingan va turli xil mamlakatlarda bir xil hisob berish amaliyotini ta'minlaydi.

### **Milliy va xalqaro buxgalteriya standartlari o'rtasidagi asosiy farqlar.**

<sup>25</sup> <https://www.ifrs.org/use-around-the-world/why-global-accounting-standards/>

Milliy buxgalteriya standartlari har bir davlatning iqtisodiy, huquqiy va moliyaviy tizimlariga mos ravishda ishlab chiqiladi. O'zbekistonda bu jarayon O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunga (Qonun, 2016) va tegishli milliy standartlarga asoslanadi. Ammo, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) butun dunyo iqtisodiy hamkorlikni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va turli mamlakatlarda biznes yurituvchi korxonalar uchun bir xil qo'llaniladi.

**Asosiy farqlar quyidagilarda ko'rinadi:**

1. Tushuntirish darajasi: Milliy standartlar ko'pincha qattiq qoidalar asosida ishlab chiqiladi va mahalliy soliq qonunchiligiga qaratilgan. MHXS esa ko'proq tamoyillarga asoslanadi, bu esa ma'lumotlarni xalqaro darajada solishtirish imkonini beradi.

2. Baholash usullari: MHXS bo'yicha aktiv va passivlarning bahosi bozor qiymatiga yaqinlashishi uchun qayta baholash imkoniyatlari kengroq bo'lsa, milliy standartlar bu borada cheklovli bo'lishi mumkin.

3. Hisobot shakllari: MHXS hisobot shakllari va talablari xalqaro investorlarga qulay va tushunarli bo'lishi uchun mo'ljallangan bo'lsa, milliy standartlar mahalliy auditorlar va soliq organlari talablari bilan cheklangan bo'lishi mumkin.

**Xalqaro standartlarga o'tishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:**

*Shaffoflik:* Xalqaro standartlar moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishda ko'proq shaffoflikni ta'minlaydi.

*Taqqoslash mumkinligi:* Turli mamlakatlardagi kompaniyalar moliyaviy ko'rsatkichlarini bir-biri bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladi.

*Investitsiyalarni jalb qilish:* Xalqaro investorlar uchun tanlangan kompaniyaning moliyaviy holati haqida aniq ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini milliy standartlardan xalqaro standartlarga o'tkazish jarayoni bir qancha bosqichlardan iborat:

1. Tahlil va rejalashtirish: Korxonada mavjud buxgalteriya tizimini tahlil qilib, xalqaro talablar bilan solishtiriladi. Bu bosqichda asosiy muammolar aniqlanadi va ularga yechimlar ishlab chiqiladi.

2. Me'yoriy-huquqiy bazani o'rganish va moslashtirish: Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash uchun avvalo korxonalar milliy huquqiy talablarga mos keladigan me'yorlarni o'z ichiga olgan transformatsiya rejasini ishlab chiqishlari lozim.

2. Ta'lim va malaka oshirish: MHXS bo'yicha buxgalterlar va moliyaviy xodimlarning yetarli bilim va ko'nikmalarini ta'minlash kerak. Ushbu jarayonda treninglar va sertifikatlash dasturlari muhim o'rin tutadi. Buxgalteriya hisobi bo'yicha mutaxassislarni yangi standartlarga mos ravishda tayyorlash zarur. Bu bosqich seminarlar, treninglar va onlayn kurslar orqali amalga oshiriladi.

3. Texnologik yangilanish: Transformatsiya jarayonida moliyaviy hisobot va buxgalteriya dasturlari ham yangilanadi. Ular xalqaro standartlarga mos ravishda moslashtirilishi lozim. Buxgalteriya dasturlari va IT tizimlarini yangilash yoki modernizatsiya qilish kerak bo'ladi. Xalqaro standartlarga mos keladigan dasturlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

4. Hisob siyosatini qayta ko'rib chiqish: Transformatsiya jarayonida korxonalar moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga mos ravishda qayta tayyorlashlari lozim. Bu jarayonda

aktivlar, majburiyatlar va kapitalning baholanishi, amortizatsiya siyosati va soliq hisobotlari qayta ko'rib chiqiladi. Kompaniya ichida yangi hisob siyosatini ishlab chiqish lozim bo'ladi, bu esa xalqaro standartlarga to'g'ri kelishi kerak.

5. Audit va nazorat: O'zgarishlarning samaradorligini baholash uchun ichki audit tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

#### **Transformatsiyaning afzalliklari**

Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish: MHXS bo'yicha hisobot yurituvchi savdo korxonalarini xalqaro investorlarga qulayroq va tushunarli moliyaviy ma'lumotlar taqdim etadi. Bu xalqaro kapital bozorlariga kirish imkoniyatlarini oshiradi.

Moliyaviy hisobotning oshkoraligi va ishonchliligi: MHXS bo'yicha tuzilgan hisobotlar xalqaro darajada tan olingan me'yorlar asosida tuzilgani uchun investorlarda va hamkorlarda ishonch uyg'otadi.

Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish: Transformatsiya qilingan buxgalteriya hisoblari korxonaning xalqaro bozorga chiqishini va raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

#### **Transformatsiya jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklar**

Moliyaviy va inson resurslari: Transformatsiya jarayoni katta moliyaviy va inson resurslarini talab etadi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun dastlabki xarajatlar va xodimlarni o'qitish uchun vaqt talab qilinadi.

Texnologik integratsiya: Yangi dasturiy ta'minot va texnologiyalarni joriy etish qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin, ayniqsa kichik va o'rta biznes sub'ektlari uchun.

Huquqiy cheklovlar: Ba'zi davlatlarda milliy soliq qonunchiligi xalqaro standartlarga to'g'ri kelmaydi, bu esa korxonalariga qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Korxonalar birinchi marotaba MHXSni qo'llaganda quyidagi amallarni amalga oshirish zarur hisoblanadi:

1. "Moliyaviy holat to'g'risida"gi, "Foyda va zarar va boshqa umumlashgan doromadlar to'g'risida"gi hisobot, "Pul mablag'lari harakati to'g'risida"gi hisobot va "Kapital harakati to'g'risida"gi hisobotlarni tuzish uchun schotlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish, shuningdek, moliyaviy hisobotlarda MHXS talablariga muvofiq korxonaning hisob siyosatini ishlab chiqish;

2. Buxgalteriya hisobi tizimida aylanma qaydnomalarni shakllantirish, buxgalteriya hisobi qoidalarini va MHXSga muvofiq iqtisodiy mazmuni bo'yicha xo'jalik operatsiyalarini aks ettirishdagi farqlarni ko'rsatadigan ishchi hujjatlarni tuzish;

3. O'tgan davrlarda berilgan buxgalteriya yozuvlarining iqtisodiy mazmuni bo'yicha MHXS talablariga moslashtirish uchun tuzatuvchi yozuvlarni amalga oshirish.

Keling endi MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish bosqichlarini ko'rib chiqamiz:

MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishning dastlabki bosqichida birinchi marotaba MHXS qo'llash bo'yicha "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash" 1 - sonli MHXS asosida korxonalar o'zining MHXS bo'yicha birinchi moliyaviy hisobotlarini va u tomonidan MHXS bo'yicha birinchi moliyaviy hisobotlari qamrab olgan davrning bir qismi uchun MHXS 34 "Oraliq moliyaviy hisobotlar"ga muvofiq taqdim qilinadigan hamma oraliq moliyaviy hisobotlariga nisbatan, agar shunday hisobotlari bo'lsa qo'llash kerak hisoblanadi (Ergasheva va boshq., 2019).

Korxonaning boshqaruv tuzilmasini baholash;

Hisobotni taqdim etish valyutasi va qaysi tilda taqdim qilinishini belgilashi.

Keyingi bosqichda:

MHXS bo'yicha moliyaviy holat to'g'risidagi boshlang'ich hisobotida va uning MHXS bo'yicha birinchi moliyaviy hisobotlari qamrab olgan hamma davrlarda bir xil hisob siyosatlarini qo'llashi;

Hisob siyosati asosida korxonaning hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish;

MHXS asosida transformatsiya qilish uchun kerakli ma'lumotlari yig'ish;

BHMS asosida yuritilgan hisob siyosati bilan MHXS bo'yicha tuzilgan yangi hisob siyosatini bir-biri bilan o'zaro taxlil qilish;

BHMS asosida yuritilgan hisobotlardagi mavjud xatolarni aniqlash va taqqoslash;  
Aniqlangan xatolar yuzasidan MHXS asosida tuzatuvchi o'tkazmalarni berish;

Moliyaviy hisotlarni ("Moliyaviy holat to'g'risida"gi, "Foyda va zarar va boshqa umumlashgan doromadlar to'g'risida"gi hisobot, "Pul mablag'lari harakati to'g'risida"gi hisobot va "Kapital harakati to'g'risida"gi) shakllantirish;

Moliyaviy holat to'g'risida"gi hisobot va "Foyda va zarar va boshqa umumlashgan doromadlar to'g'risida"gi hisobotlar elementlariga MHXS talabiga asosan tushuntirish va izohlar berish.

MHXS asosida transformatsiya qilish jarayonining amaliy qismida quyidagi amallar bajariladi (bu umumiy amallar hisoblanib, xar bir korxonaga o'zining hisob siyosatidan kelib chiqib belgilaydi)

Exsel dasturida ishchi jadval (Conversion) fayli yaratib olinadi;

Ishchi jadval (Conversion) faylidagi BHMS asosida yuritilgan hisobotlardagi ayrim hisobraqamlar uchun MHXS talabiga muvofiq moliyaviy hisobotda foydalaniladigan mos element nomlari ishlab chiqiladi;

O'tgan yillarda berilgan tuzatuvchi o'tkazmalar joriy yildagi taqsimlanmagan foyda bilan korrektirovka qilinadi;

BHMS asosida berilgan buxgalteriya o'tkazmalariga MHXS asosida tuzatuvchi o'tkazmalarni berish;

Tuzatuvchi o'tkazmalar berilgandan so'ng "Moliyaviy holat to'g'risida"gi, "Foyda va zarar va boshqa umumlashgan doromadlar to'g'risida"gi hisobot, "Pul mablag'lari harakati to'g'risida"gi hisobot va "Kapital harakati to'g'risida"gi hisobotlar shakllantiriladi. Shu tariqa savdo korxonalarining milliy hisobotlari MHXS transformatsiya qilinadi.

### **Xulosa va takliflar.**

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini milliy standartdan xalqaro buxgalteriya standartlariga transformatsiya qilish jarayoni hozirgi iqtisodiy sharoitda zaruriy hisoblanadi. Bu transformatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun rejalashtirilgan strategiya, malakali xodimlar va texnologik resurslarga ega bo'lish lozim. Transformatsiya natijasida korxonalarining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligi ortib, investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati oshadi. Shu bilan birga, bu jarayon moliyaviy oshkorlik va ishonchlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini milliy standartlardan xalqaro standartlarga o'tkazish jarayoni murakkab bo'lishi mumkin, ammo u uzoq muddatda kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishi kutilmoqda. Ushbu transformatsiya nafaqat moliyaning shaffofligini oshiradi, balki butun korxonani rivojlantirishga xizmat qiladi hamda investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi. Shuning uchun har bir savdo korxonasi ushbu jarayonni jiddiyat bilan yondashishi zarurdir.

### **Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:**

Amer Morshed (2024) *Assessing the Economic Impact of IFRS Adoption on Financial Transparency and Growth in the Arab Gulf Countries. Economies*  
<https://www.mdpi.com/journal/economies>

Aralov S. J. (2023) *O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning dolzarbligi va ahamiyati. Iqtisodiyot va ta'lim / 3-son*

Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. (2019) *Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, – 227 b.*

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son Qarori, <https://lex.uz/docs/-4746047>

Qonun (2016), O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni 13.04.2016 y. №404, <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>

Uzakov U.A. (2024) Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisob siyosatini shakllantirish Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, avgust. № 8-son.

<https://www.ifrs.org/use-around-the-world/why-global-accounting-standards/>  
<https://www.ifrs.org/use-around-the-world/why-global-accounting-standards/>